

## “YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISH DAVR TALABI”

*Termiz davlat universiteti  
O'zbek tili fakulteti sirtqi  
4-bosqich talabasi  
Oqboyeva Ra'no Javli qizi*

### **Annotatsiya**

Yozma nutq inson tafakkurining mahsuli bo'lib, o'z fikrini ifodalashning eng muhim vositalaridan biridir. Yozma ishlar ilmiy, badiiy, amaliy va rasmiy uslubda yozilishi mumkin. Ular fikrni mantiqiy va izchil bayon qilish, o'z fikrini aniq va tushunarli ifodalash hamda yozma savodxonlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Ta'limiy insho, sinov insho, yozma ish izchilligi, mantiqiyligi, diktant, bayon, tarkibiy qism, badiiy ifoda, an'anaviy ta'lim.

Maktab o'quvchilarining bilim darajasini monitoring qilish, ularni baholash uslub va qoidalari yuzasidan belgilangan maxsus talablarning umumiy bir asosda hosil bo'lishi yozma ishlarni tashkil qilish bilan belgilanadi. Shuni aytish mumkinki, ona tili darslarining baholanish sistemasi va o'quvchilarni baholash tizimi yozma ishlarni olish va ularni tekshirish orqali namoyon bo'ladi. Shuningdek, ona tili darslariga xos tarzda amalga oshiriladigan ona tili darslarining uslubiy me'yor va qonuniyatlarga asoslanishi yuzasidan amalga oshiriladigan diktant, insho kabilarning ahamiyati o'quvchilarning bilim darajalari, yosh xususiyatlariga ko'ra tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada yozma ishlarni tashkil etish yuzasidan insholar va nazorat ishlari, yozma savodxonlikni oshirish haqida jadid bobolarning qarashlari va yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar haqida fikr mulohazalar yoritilgan. . Yozma ish insonning fikrlarini yozma shaklda ifodalashidir. Bu nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham katta ahamiyatga ega. Yozma nutq og'zaki nutqdan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

1. Rasmiyligi – yozma ish mantiqiy va izchil bo'lishi kerak.
2. Grammatik qoidalar asosida tuzilishi – so'zlarning to'g'ri yozilishi, tinish belgilarining o'rnini muhim hisoblanadi.
3. Qayta ishlash imkoniyati – og'zaki nutqdan farqli ravishda yozma matnni tahrirlash mumkin.
4. Maqsadga yo'naltirilganligi – har bir yozma ish ma'lum bir vazifani bajarish uchun yoziladi.

Yozma ish turli janr va shakllarda bo'lishi mumkin. Uni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

1. Ilmiy yozma ishlar.
2. Badiiy yozma ishlar.
3. Publisistik yozma ishlar
4. Rasmiy yozma ishlar
5. O'quv yozma ishlari

Maqolada ilmiy va o'quv yozma ishlari haqida fikr bildiramiz

Ilmiy yozma ish -bu tur ilmiy izlanish natijalarini bayon qilish uchun yoziladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Maqola – muayyan mavzuni ilmiy tahlil qiluvchi matn.

Referat – mavjud adabiyotlar asosida yozilgan ilmiy ish.

Kurs ishi va diplom ishi – talabalarning ilmiy izlanish natijalarini aks ettiruvchi ishlar.

Dissertatsiya – ilmiy daraja olish uchun yoziladigan ish.

Yozma ishlarning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

a.Mantiqiy izchillik va dalillarga asoslanishi

b.Aniq ilmiy tahlil va tahliliy fikr yuritish

c.Manbalarga tayanish va ularni keltirish

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimini tekshirish va rivojlantirish uchun yoziladigan matnlar.

Diktant – orfografik va grammatik savodxonlikni tekshirish uchun yoziladi.

Bayon – o'quvchi tomonidan tinglangan yoki o'qilgan matn asosida yoziladi.

Milliy pedagogikadagi asosiy tamoyillardan biri yozma nutqni shakllantirish masalasi edi. Jumladan, jadid pedagoglari yozma nutqning inson tafakkurini o'stirishga xizmat qilishini yaxshi anglashgan. Shuning uchun maqolalari hamda darsliklarida yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga ahamiyat berishgan. O'quvchilarga beriladigan matnlar, insholarning mazmuni, sodda-murakkabligiga alohida e'tibor qaratishgan. Matnlarni o'quvchi yoshiga qarab saralashni, bu borada boshqa mamlakatlardagi ilg'or pedagogik tajribalarga tayanish lozimligini ta'kidlashgan. Ayrim mamalakatlarda insho yozish mezonlari ishlab chiqilgani xususidagi ma'lumotlarni qayd etishgan: "... mushkul iboratlik uzun insholar, albatta, bola zehnini ochmay, balki fikrini(ng) yo'q bo'lishig'a sabab bo'lur. Biljumla mamoliki islomiyaning maktablarindagi bolalar uchun yengil suratda insho tayyorlanubdurki, ibtidoiyya, rushdiyya, e'tidodiyya maktab talabalarini(ng) har birig'a muvofiq suratda insho ta'lim beriladur".<sup>1</sup>

"Diktant"-lotincha so'z bo'lib"Xa deya gapiravermoq","takrorlamoq","aytib turmoq" ma'nolarini ifoda etadi.Ushbu yozma ish turi imloviy va punktuatsion qoidalarni o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun aytib turib yozdiriladigan yozma

<sup>1</sup>Mahmudxoja Behbudiy. Ko'rsatilgan manba. –T., 1997. 153-6.

ishdir. Ona tili ta'limining maqsadi tafakkur darajasi shakllangan mustaqil fikrlay oladigan, nutqiy ko'nikma va muloqot madaniyati rivojlangan savodli shaxsni kamol toptirishdir. Shu maqsadni amalga oshirishdagi asosiy e'tibor o'quvchining fikrlash tezligini, hozirjavobligini salohiyatini oshirish, mantiqiy tafakkurini o'stirishga yo'naltirilgan.

Bayonning maqsadi o'quvchilarni turli sohalarda rivojlantirish, ularning tushunchalarini kengaytirish, g'oyalarini qurish, muhokamani o'rganish va ijtimoiy munosabatlarni kuchaytirishdir. Bu jarayonning asosiy maqsadlari quyidagilar bo'lishi mumkin: **Tilni rivojlantirish:** Hikoyalash va bayon o'quvchilarga tildan foydalanish, so'zlash, eshitish va yozish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. **O'qish qiziqishini oshirish:** O'quvchilarning o'qishni sevimli va qiziqarli mashg'ulotiga aylantirish, ularning o'zlarini o'rgangan materialga qiziqtirish va uni o'zlashtirishlari uchun motivatsiya yaratadi. **Tushunchalarini oshirish:** Hikoyalash va bayon o'quvchilarga dunyoqarashini kengaytirish va fikr qilib ko'rishni o'rganishga imkoniyat beradi.. ona tili darslarida o'quvchilarni bayon yozishga to'g'ri yo'naltirish o'quvchining ijodiy tafakkurini o'stirish bilan bir qatorda ularni so'z boyligini oshirishga va o'z fikr tushunchalarini izchil va erkin bayon eta olishga o'rgatishi bilan o'ta munimdir.

Darhaqiqat, insho yozma nutqni, fikrni o'stirish, tafakkurni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Inson qaysi kasb egasi bo'lmasin, yuksak tafakkur sohibi bo'lsagina, yangilik yaratadi. Yozma nutq malakalarini shakllantirish, og'zaki nutqni takomillashtirish faqat soha doirasidagi muammo emas, balki umumta'lim jarayonidagi zuratdir. Negaki yozma va og'zaki nutqning me'yoriy darajada shakllanishi fikrlash tezligini oshirishga, o'quvchi tafakkur doirasini kengaytirishga yordam beradi. Yozuv bevosita qo'l bilan amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, qo'l harakatining miya yarim sharlariga aloqadorligi psixologik tahlillarda qayd etilgan.

Yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish uchun har tomonlama malakali, ma'naviy barkamol, axloqan yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlashga, yozma nutq me'yorlarini o'rgatishga maktab davridanoq e'tibor qaratish lozim. Respublika Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov maktab ta'limiga alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidlaganlar. Boshlang'ich ta'limga ahamiyat berilmaganligini eng katta kamchiliklardan biri sifatida baholaganlar: "Eski ta'lim tizimining yomon qusuri boshlang'ich ta'limga ikkinchi darajali ish deb qarayotganimizdadir".<sup>2</sup> Ta'limning uzluksizligini ta'minlash lozim bo'lganidek, kadrlar tayyorlash jarayonini, yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishni ham uzluksiz ravishda olib borish kerak bo'ladi. Ya'ni dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati muayyan qolipga kirgan talabani qisqa davrda har tomonlama yetuk, bilimli, tafakkur darajasi keng, yozma nutq me'yorlarini to'liq

<sup>2</sup>Mahmudxoja Behbudiy. Ko'rsatilgan manba. –T., 1997.154-b.

egallagan mutaxassis sifatida shakllantirish ancha mushkul. Shu sabab adabiy til me'yorlarini to'liq o'zlashtirgan, fikrini to'g'ri, xatosiz, izchil va ravon ifodalay oladigan mutaxassis-kadrlar tayyorlashni maktab o'quvchisini har tomonlama maqsadga muvofiq tarbiyalashdan boshlash kerak. Buning uchun yoshlarning ta'lim olishi, bilim darajasi, yozma topshiriqlarni bajarish tartibiga alohida e'tibor qaratish lozim. Yoshlarga texnik vositalarning ahamiyati, axborot yetkazishdagi o'rnini ta'kidlash shart emas. Bugunning ziyrak, zukko farzandi voqelikdan o'zi xulosa chiqarib olmoqda. Bugungi ta'lim jarayonida yoshlarga kitob o'qish, badiiy asarlarni mutolaa qilish, yozma nutq ko'nikmalarini egallash fikr o'stirishning asosiy vositalaridan ekanligini, tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilishini, bu omillarsiz har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lish mumkin emasligini ham uqtirish lozim. Bu borada faqat nasihat bilan ish bitmaydi. Yozma nutqni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar, ilmiy va badiiy adabiyotni mutolaa qilishga yo'naltirilgan tadbirlarni bevosita ta'lim jarayonida qo'llash kerak bo'ladi Mumtoz madaniy merosni tahliliy o'rganish jarayonida ularda aks etgan asosiy qarashlarning hozirda ham o'z qiymatini yo'qotmaganligi ma'lum bo'ladi. Deyarli, barcha fikr-mulohazalar – o'tmishda aytilgan bugunning gaplari. Faqat ularni anglay bilish kerak. Yoshlar kelajakka olib boruvchi yo'lining ajdodlarimiz tafakkur ziyosi bilan yo'g'rilgan sarhadlardan o'tishini aslo unutmasliklari lozim. Ajdodlar merosini, o'tmishini, ma'naviyatini, milliy qadriyatini, o'zlikni qadrlamasdan, tarix haqidagi xotirani shakllantirmasdan turib, har tomonlama yetuk, barkamol mutaxassis kadr sifatida kamol topish mushkul. Zotan, "Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q!"

Yozma ish va topshiriqlarning har qanday ko'rinishi mumtoz asarlar mohiyatini o'zlashtirishda, milliy qadriyatlarni anglashda muhimdir. Ayniqsa, adabiy mavzudagi insholarning asosiy maqsadi o'tmish va bugunning manfaatlarini umumlashtirishga qaratilgan.

Yozma ishlarga e'tibor faqatgina milliy pedagogik tajribada emas, xorij ta'limi va baholash tizimida ham kuzatiladi. Masalan, keng yoyilgan til o'qitish dasturlari hisoblangan IELTS, TOEFL tizimlarida 60 daqiqalik umumiy mavzuda esse yoki insho yozish, 50 daqiqa mobaynida o'qiganlari hamda eshitganlari bo'yicha savollarga javob tarzida yoki o'zi bilgan mavzuni dalillar, ma'lumotlarga tayangan holda yozma tarzda asoslab berish talablari keltirilgan.

Insho – o'quvchining mustaqil fikrini ifodalashga asoslangan yozma ish.

Insholarning muallif tomonidan yozilishida ijtimoiy tarzda amalga oshiriladigan qarashlarning yaxlit bir tizimlilik asosida fikr-mulohazalarning bayon etilishi yuzasidan ham qarashlar mavjud. Ushbu qarashlarning baholash sistemasi o'quvchi – yoshlarga qanchalik mos kelish yoki kelmasligi yuzasidan ham qarashlar mavjud ekanligi bilan baholaniladi. "Insho muallif tomonidan ijod etiladi, yaratiladi. Insho yozishda muallifdan fikr mulohazalarini faktik material asosidan mantiqan izchil va

badiiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda bayon etish talab qilinadi. Insho belgilangan maqsadga ko'ra ikki xli bo'ladi. -ta'limiy insholar; -sinov insholar.

Ta'limiy insholar sinfda yoki uyda o'quvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuning to'g'ri bayon qilishiga qaratiladi Bunday insholarda yozuvchi yoki shoir ijodi, asarlari mazmuni, mavzu doirasi, badiiy ahamiyatini o'zlashtirish, o'quvchilarda fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadini qo'yadi.

Haqiqatdan ham, o'quvchilarning pedagogik bilim va qonuniyatlarini shakllantirishda uzviy aloqadorligini tashkil etishning o'zaro konseptual ahamiyatligi ham ta'lim jarayonida namoyon bo'lish bilan baholaniladi. Shunga ko'ra, ta'limiy insholar va sinov insholarining o'zaro farqli jihatlari ham pedagogik jarayonda namoyon bo'lishi bilan izohlaniladi. Pedagogik jarayonlarning an'anaviy ta'lim jarayonlariga muvofiqligini izohlashda mavjud bilim va ko'nikmalardan kelib chiqib, fikrlashni o'stirishga qaratilgan vazifalarning umumiylikini saqlagan holatda yozma ishlar, insholarning ahamiyatlilik darajasi katta hisoblaniladi. Shuni aytish lozimki, ona tili darslarida o'rganilgan bilim va malakalarning xotirada qolishi va o'zlashtirish darajasining umumiylik nuqtayi-nazaridan yozma ishlarni tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir.

### **Xulosa**

Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga, kommunikativ savodxonlikka o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi. Shundan kelib chiqib yozma ishlarni tashkil etishdan ko'zlanadigan maqsad- o'quvchi yoshlarning bilim salohiyatini tekshirish, ularni baholashdir.

Yozma ish inson tafakkurining muhim ko'rinishi bo'lib, u har xil maqsadlarga xizmat qiladi. Ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy va o'quv yozma ishlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har biri o'z mavzusi va maqsadiga qarab turlicha shakllanadi. Yozma nutq madaniyatini rivojlantirish insonning tafakkur doirasini kengaytiradi va uning muloqot qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. -Toshkent "Turon zamin ziyo", 2017.
2. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012.
3. Kompetensiyaga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o'zbek tili (5-9 sinflar). Toshkent. 2016.

4. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
5. P.A.Йўлдошев, М.М.Рихсиева. Иншолардаги матний хатолар, уларни тузатиш методикаси. –Тошкент, 2018.